

## MAKTABGACHA TA'LIMDA AQLIY TARBIYA

*DTPI Maktabga ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Urozimbetova Sarvinoz Rustam Qizi**

*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Bahodirova Shaxina Bobirjonovna**

*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Jovunboyeva Mashhura Mamasoli Qizi**

**Annnotatsiya:** *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy jihatdan rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.*

**Ka'lit so'zlar:** *ta'lim, tarbiya,maktabgacha ta'lim,aqliy rivojlanish,aqliy tarbiya,bola.*

### KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish -- bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatish. U yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, malaka va ko'nikmalarda, qoidalarda o'z ifodasini to'plagan bilimlar, malaka va ko'nikmalarda, qoidalarda o'z ifodasini topgan ijtimoiy - tarixiy tajribani egallashning rejali jarayoni sifatida ro'y beradi. Aql - bu keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi hisoblanadi. Abdulla Avloniy bobomiz tarbiya haqida shunday fikr yuritgan: tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim va tarbiya haqida shunday fikr bildirgan: " Agar mendan sizni nima qiynaydi deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasini deb javob beraman.

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob - axloqi yurish - turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapdi. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - bu yoshlardir. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da' vat ularning qalbida doimo aks - sado berib , o'zligiga sodiq qolishiga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Aqliy tarbiya - bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik va psixologik tomonidan ta'sir ko'rsatishdir. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida.

Insoniyat paydo bo'lganda beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olim - u fozillar, shoir - u yozuvchilarining barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining etiborli kishilari darajasiga ko'tariladilar.

Bizning bobokalonlarimiz: Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Abdulla Avloniy va boshqalar garb olimlarimizdan K.D.Usheniskiy, J.J.Russo, Jon Amos Komeniskiy va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.

Aqliy tarbiyasi yetuk o'tkir, zehinli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik - bu donolik hisoblanadi. Hatto zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham ta'lim - tarbiya masalalariga katta ahamiyat qaratgan.

Xulosa qilib aytganda boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rvojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkichining yuqoriligidagi ko'rishimiz mumkin. Bolalar bog'chali oldida bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi turibdi. Demak, bolani mакtab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati juda katta.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. F.R. Qodirova, Sh.Q.Toshpolatova,N.M.Kayumova, M.N.Azamova, Maktabgacha pedagogika. Darslik. " Tafakkur" nashriyoti. Toshkent.- 2019.- 688.
2. Hasanboyeva O. Oilada barkamol avlod tarbiyasi - T: O'zbekiston - 2010.
3. Hikmatlar.uz.